

Toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanmoqda

Aholining toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda Beruniy tumanida investitsiya dasturlari asosida hududlarda ichimlik suvi quvurlari tortilmoqda. Shulardan biri "Oltinsoy" ovul fuqarolar yig'inida loyiha qiymati 4 mlrd. 777 mln so'mlik 13,7 km ichimlik suv tarmog'ini tortish va 1 ta suv taqsimlash inshootini rekonstruktsiya qilish ishlari pudratchi tashkiloti "Aralqurilish mantaj stroy" MChJ tomonidan amalga oshirilmoqda.



Hozirgi kungacha 2,8 km qismiga ichimlik suvi tarmog'i tortildi va suv taqsimlash inshootida ta'mirlash ishlari bajarilmoqda.

Bundan tashqari tumanda investitsiya dasturi asosida "Qizilqal'a" OFYda loyiha qiymati 3 mlrd. 472 mln. so'mlik 16,3 km ichimlik suvi tarmog'ini tortish va 1 ta suv taqsimlash inshootini rekonstruktsiya qilish hamda "Maxtumquli" OFY xududida yangidan 5,9 km ichimlik suvi tarmog'ini tortish ishlari olib borilmoqda.



Beruniy tumani hokimligi axborot xizmati